

FE'L SEMANTIKASINI MODELLASHTIRISHDA KOMPONENTLARNING AHAMIYATI

Saloxiddinov Manuchehr Sharofiddinovich
Samarqand davlat chet tillar instituti, o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maolada tugallanganlikni ifodalovchi birliklar turli voqea-hodisalarning yakuniy fazasi, natijasi, transformativ vaziyatlarda semantik voqelanishi tomonidan farq qilishi sinchkovlik bilan tahlil qilingan. Xususan, ingliz tilida perfekt va tugallanganlik ma'lum grammatik shakllanganligi, pragmatik ifodalanish jihatlarida, voqea-hodisalar ketma-ketligida farqli tomonlari aniq ko'zga tashlanadi. O'zbek tilida esa tugallangan ma'nolarni faqatgina kontekstda, pragmatik ifodalanish jihatlarini e'tiborga olgan holda aniqlash mumkinligi misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Temporal birlik, analitik shakl, semantik maydon, ontologik kategoriya, aspektual freym

O'zbek tilida tugallanganlik morfologik shakllangan bo'lib, analitik shakllarda, to'liqsiz fe'llar yordamida va shuningdek, temporal birliklar yordamida uchraydi. Ingliz tilidan farqli ravishda, o'zbek tilidagi tugallanganlik o'tgan zamonga xos xususiyat sifatida ham baholanishi mumkin. Masalan: Mahmud chinor tagiga keldi-da, yonidan pichog'ini sug'urib, Qumri bog'langan arqonlarini shart-shart kesib tashladi (Said Ahmad 95).

Tugallanganlik o'zbek tilida ko'pgina hollarda analitik shakllarda ifodalanadi. Mazkur hollarda tugallanganlik taksis hodisasi doirasida yuzaga keladi. Bunda matn doirasida asosiy ma'lumotdan oldin sodir etilgan voqea-hodisa tugallanganlik kasb etadi. Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

Ummatalining nazarida o'g'li ancha esli, mulohazali bo'lib qolgan (Said Ahmad, 107);

Axir Akbarali chuv tushgan kuyovi bilan yo'lingni poylab yuripti (Said Ahmad, 108).

O'zbek tilida fe'l ifodalaydigan harakatlar zamon shakli voqelanishida nutq momenti tayanch nuqta sifatida qaraladi. Bunga sabab nutq momentidan oldin sodir etilgan harakatlar aynan vaqt oralig'igiga nisbatan o'lchanadi. Jumladan, nutq momentiga nisbatan yaqin vaqt oralig'ida sodir etilgan voqea-hodisa yaqin o'tgan zamon shakli yoki nutq vaqtidan ancha oldin sodir etilgan voqea-hodisa uzoq o'tgan zamon shakliga ega. Masalan: Bo'ri sap-sariq ko'zlari baqraygancha o'lib qolgan edi (Said Ahmad, 320). Bu yerda uzoq o'tgan zamon shakli ham ma'lum ma'noda sodir etilgan voqea-hodisaning natijasini anglatib keladi.

Aspektual semantik maydon turli dinamik vaziyatlarni (fe'l leksemasining "ichki vaqt ko'rsatgichi") tasvirlash usuli sifatida talqin etiladi. Aspekt va predikatning semantik (aspektual) turi esa aspekt va "harakatning bajarilishi" (Aktionsart) hisoblanadi. Ye. Paducheva rus va ingliz tilidagi aspektual predikatlarni davomli vaziyatlarini tipologik taniflash va kognitiv nuqtai nazardan tahlil etish jarayonida ularni ikki katta turga ajratadi: TASHQI "периода наблюдения" (davri) tushunchasi va ICHKI "линейная структура ситуации" (vaziyatning tizimli strukturasi). O'z navbatida, muallif vaziyatning tizimli strukturasi asosiy ko'rsatgichlari sifatida prospektiv, progressiv, rezultativ, kompletiv, punktiv, limitativ kabilarni keltiradi.

Perfekt "kuchsizlangan" tugallangan hisoblanib, uning asosiy semantik rivojini immediant, eksperiensial va evidensial perfektlar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, aspektni chegaralanmagan protsess asosida "birlamchi" va "ikkilamchi" kabi turlarga ajratadi. Birlamchi turni ichki fazani anglatadigan durativlik va progressivlik tashkil etsa, ikkilamchi aspekt xabituallis, multiplikativlik jarayonlaridan iborat (E. Paducheva, 1996:23). Ye. Paducheva

tomonidan kiritilgan taksonomik sinflar (obyekt, obyekt va substansiya, hodisa, jarayon, faoliyat, holat) (o'sha adabiyot 34) ontologik kategoriya atamasi bilan yuritiladi.

Har qanday hodisa, vaziyat yoki harakatning tugallanganligi haqidagi ma'lumot tugallanganlik aspektual freymida o'z aksini topadi. Tugallanish ma'nosining ifodasi tillarning tabiatidan kelib chiqqan holda leksik yoki grammatik ko'rsatgichlarga ega. Ingliz tilida tugallanganlik fe'lining aksional (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik) ko'rsatgichi, grammatik vosita (perfekt) va leksik birliklar (up, over predloglari, finish, end fe'llari) yordamida amalga oshsa, o'zbek tilida bu vazifa ko'proq grammatik vositalarga, ya'ni ba'zi ko'makchi fe'llarga yuklatiladi. Shuningdek, aspektuallikning tugallanganlik freymi doirasida aniqlanadigan vaziyatlardan biri natijaviylikdir. Bunda sodir etilgan voqea, hodisa yoki harakatning natijasini ko'ramiz. Albatta, natijaviylik tugallanganlik aspektual freymiga qarashli. Bunda ifodalanadigan ma'nolar bir-biriga juda yaqin hisoblanadi.

Tugallanganlikka nisbatan natijaviylik xususiyatga ega sanaladi. Masalan: 1) The ten cents carried Martin across the ferry to San Francisco, and as he walked up Market Street he speculated upon his predicament in case he failed to collect money (J. London. 298);

2) But all that had ended when they moved the first shovel and wheelbarrow onto the mountain of Hissarlik (Stone, 275);

3) They had moved a few steps to a small coffeehouse, where a group of native were sitting about a table with tiny, long-emptied coffee cups before them (Stone, 297);

4) By the time I reached San Francisco in 1851, after crossing the Isthmus of Panama, the gold fields were crowded (London, 116).

Ingliz tilida tugallanganlik ma'nosi sintaktik birliklar va fe'lining semantik xususiyati ta'sirida yuzaga keladi. Jumladan, birinchi misolda **up** adverbni harakatning oxirgi nuqtasini ifodalagan bo'lsa, qolgan misollarda failed, moved the first shovel, had moved a few steps, reached fe'llarining aksional xususiyati, obyektning miqdoriy jihatlari harakat, voqea-hodisalarning tugallanishini bildirgan.

Tugallanganlik freymida natija, ma'lumotning to'liqligi, harakatning yakunlanganligi, vaziyatning bir butunligi kabilari o'z aksini topadi. Mazkur freym subyekt, obyekt, makon, prototip aspektual fe'l, fe'lining aksional xususiyati, vaqt, natija tushunchalari bilan aloqador.

Fe'l semantikasida o'ziga xos vaziyatlarni aks ettira oladigan ma'no bo'limlari mavjud bo'lib, ular freym shakllanishiga imkon yaratadi. Fe'l semantikasini modellashtirishda uning tarkibidagi komponentlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, o'zbek tilida mazkur komponent sifatida ko'makchi fe'llarni keltirish mumkin. Ko'makchi fe'llar tugallanganlik freymini hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Masalan:

1) "Yaxshi bola" bo'lib, qayiqcha ustiga o'tirib oldim. Dadam bir xatlab ariqdan o'tdi-da, kartoshka paykalga kirib ketdi (O'.Hoshim, 32);

2) Nima?!- u chayon chaqqandek sakrab o'rnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampa o'chib qoldi (O'.Hoshim,42);

3) Yana jimib qolishdi. Qozon qattiqroq biqiray boshladi. Tog'am bilan kelinoyimning ovozi eshitilayotgan devor tuynugidan qor uchqunlari oshxonaga kirib, o'choq taftida yerga tushmay erib ketdi (O'.Hoshim,139).

Ma'lumki, aspekt ham, zamon kategoriyasi ham fe'l mahsuli sanaladi. Ular o'rtasidagi farqni Antoni Pik quyidagicha ta'riflaydi: "aspekt fe'l bilan ifodalangan voqea/hodisani boshqa fe'l, ergashgan gap yoki sifatdash bilan aloqadorlikda anqlaydi. Zamon bo'lsa so'zlovchiga nisbatan voqea-hodisani vaqtda taqsimlanishini nazarda tutadi. Masalan, "they will depart shortly" kelasi zamon bo'lib, narrator tomonidan muqarrar hodisa sifatida qaralsa, "They are about to depart" misoli esa prospektiv aspekt va ushbu vaziyatda jo'nab ketish hodisasi narrativ matnda muqarrar". (Anthony C. Pick. 2009:100). Masalan: She had vastly underestimated the time that her preliminary studies would take, mostly because, having always worked undisturbed, she

hadn't budgeted for the frequent interruptions of people who wandered by and stopped to chat (Stone, 20).

O'zbek tilida tugallanganlik freymi subyekt, obyekt, makon, prototip aspektual fe'l, fe'ning aksional xususiyati, fe'ning ko'makchi komponenti, vaqt, natija tushunchalari bilan aloqador.

Quyidagi misolga e'tibor qaratamiz: Ikkinchi yili taktik o'qish bo'lsin, umumiy ma'lumot bo'lsin, juda jiddiy ketdi. Men, ayniqsa, harbiy bilimlar bilan birgalikda chala qolgan o'rta maktabimni bitirishga ham urindim. Hatto yil o'rtasiga borib, komandir otdeleniya qilib ko'tarishdi (G'. G'ulom, 125).

Keltirilgan misoldagi voqea-hodisalar matn semantikasiga xos xususiyat sanaladi, ammo bu undagi mazmunning pragmatik asosini sof temporal munosabat sifatida baholash imkonini bermaydi. Tildan foydalanishning samaradorligi semantik tarkibning shakliy o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Bunga ko'ra muntazamlik degan tushunchani lisoniy ifodaga mos deb qabul qilish noo'rin hisoblanadi. Jumladan, rejalashtirish, asosan biror maqsad qo'yish va maqsadga erishishda tabiatda mavjud bo'lgan imkoniyatlar, voqea-hodisalar e'tiborga olingan holda ketma-ket harakatlar amalga oshiriladi.

Temporal birliklar fe'ning tus-zamon kategoriyasi bilan birikib, ularning ma'nolari va ularning deytik xususiyatlari zamon, aspektuallik, taksis ma'nolarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Antoni Pik aspektuallikning beshta elementini ajratib ko'rsatadi stativlik (state): oldingi harakatga bog'liq bo'lmagan holat; imperfekt (imperfect): davom etayotgan harakat yoki holat; perfekt (perfect): oldingi harakat natijasidan kelbi chiqqan holat; prospekt (prospect): sodir etilishi kutilgan harakat; aorist (aorist): tugallangan harakat natijaga yetaklamaydi.

Tugallanganlik voqea-hodisalarning kechimining yakuniy nuqtasini ko'rsatadi. Perfektivlik ko'p hollarda voqea-hodisalarning ketma-ketligida sodir bo'ladi. Chunki, bir subyekt tomonidan ikkita perfektiv hodisa bir vaqtning o'zida amalga oshirilmaydi va shuning uchun ham kontekst yoki matn doirasida harakat, voqea-hodisalar ketma-ketligi va temporal birliklarning faollashuvida yuzaga keladi.

Fe'lga taaluqli aspektual va vaziyat namoyishi bilan bog'liq tadqiqotlarning ko'pchiligi o'tgan zamon doirasida olib borilgan bo'lib, buning bir nechta sabablari mavjud. Ulardan birinchisi, diskurs ko'pincha nutq vaqtidan oldin sodir etilgan vaziyatlarni qamrab oladi, va o'tgan zamon ushbu vaziyatlarni bayon etishda tabiiy usul sanaladi. Shuning uchun ham o'tgan zamon vaziyat ifodalanishi borasidagi tadqiqotlarning eng muqobil yo'li hisoblanadi. Ikkinchi muhim sabab, fe'l bilan ifodalanadigan aspektual semantika turli zamon shakllarida turlicha ko'rinishga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ehtimolli vaziyat strukturalari orasidagi farq ba'zi vaziyatlar o'tgan zamonda osonlikcha moslashadi. Bu hol narrativ strukturalarni tashkil etadi. Albatta, shu kabi moslashuvni hozirgi zamon vositasida narrativ ifodaga ega bo'lgan holatlarda ham kuzatish mumkin. "Aspektual semantikaning majburiy yuzaga kelishi vaziyatda qo'llaniladigan fe'l va gapdagi zamon qo'llanilishida farq yuzaga kelganda sodir bo'ladi va mazkur hol odatda hozirgi zamonga xos xususiyat sanaladi (Wolfgang Klein, Ping Li. 2009:286).

Aspektning bosh tushunchasi xususiy ma'no bo'lib qolmasdan, balki diskursiv va pragmatik hamdir. Perfektiv va imperfektiv aspekt o'rtasidagi farq diskursdagi oldingi va keyingi fonni ko'rsatish uchun xizmat qiladi (Ronny Boogaart and Theo Janssen, 2007:818).

Perfektiv aspekt kinetik, ketma-ket keladigan voqea-hodisalarda uchraydi va narrativlikni ochib berishda markaziy o'rinda turadi. Imperfektiv aspekt orqa fonga xos bo'lib, teng, davomli vaziyat, ifoda va harakatlarni yoritish yoki perfektiv hodisani qisman yopish uchun xizmat qiladi (Hopper 1979: 58).

Tugallanganlik mazmunan turli voqea-hodisalarning yakuniy fazasi, natijasi, transformativ vaziyatlarda semantik voqelanishi tomonidan farq qiladi. Jumladan, ingliz tilida perfekt va tugallanganlik ma'lum grammatik shakllanganligi, pragmatik ifodalanish jihatlarida, voqea-hodisalar ketma-ketligida farqli tomonlari aniq ko'zga tashlanadi. O'zbek tilida esa tugallangan

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

ma'nolarni faqatgina kontekstda, pragmatik ifodalanish jihatlarini e'tiborga olgan holda aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Comrie B., Vogel P. Approaches to the Typology of Word Classes. –Berlin, 2000.– 514 p.
2. Jackendoff R. Semantic structures. – Cambridge Massachusetts: Massachusetts Institute of Technology. 1990. –312p.
3. Boogaard R., Janssen T. Aspects of Language- 31. Tense and Aspect // www.let.vu.nl./staf/thalm.janssen
4. Падучева Е. В. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива. - М.: Языки славянской культуры, 1996. – 464 с.
5. Said Ahmad. Qorako'z majnun. Hikoyalar. –Toshkent, “O'zbekiston”, 2001. – 240 b.
6. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. –Toshkent, “Sharq”. 2000. – 608 b.
7. Салоксиддинов, М. (2020). Перевод синтаксических единиц, представляющих состояние времени, с английского на узбекский. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 164-168.
8. Абсаламов, Х. У. (2023). INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQ KOMPETENTSIYASINING TADQIQI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 6(4).